

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

NARRATOLOGIYADA HARAKATLANUVCHI FOKALIZATSIYA TUSHUNCHASI

Hamroyeva Farida Faxriddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Narratologiyada harakatlanuvchi fokalizatsiya bu - muallif tomonidan u ifoda etmoqchi bo‘lgan his-tuyg‘ularni, uning fikrlari-yu, nuqtai nazarini, qarashlarini turli xil rang-barangliklardan foydalangan holda chuqur ma’no yaratish va uni o‘quvchiga taqdim etish uchun ishlataladigan tushunchadir. Bu usul muallifga uning o‘quvchilariga hikoyadagi syujetlarning hissiyotlarini, tuyg‘ularini to‘liq yetkazib berish imkonini beradi

Kalit so‘zlar: fokalizatsiya, nuqtai nazar, nolli fokalizatsiya, botiniy fokalizatsiya, zohiriy fokalizatsiya.

Harakatlanuvchi fokalizatsiya - bu adabiyotda muallif hikoya qilingan nuqtai nazarni yoki nuqtai nazarning dinamik o‘zgarishini anglatuvchi narratologik tushunchadir. Boshqa janrlarda bo‘lgani kabi, harakatlanuvchi fokalizatsiya qisqa hikoyada rang-baranglik va chuqur ma’noni yaratish hamda hikoya voqealarini filtrlangan holda o‘quvchiga taqdim etish uchun ishlatalishi mumkin.

Romanda muallif o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va ichki dunyosini ko‘rsatish uchun turli personajlar o‘rtasida almashinishi mumkin. Bu o‘quvchiga voqealar va qahramonlarning hissiy holatini to‘liqroq tushunish imkonini beradi. Misol uchun, qisqa hikoyada vaziyatni birinchi navbatda bir qahramonning, keyin esa boshqasining ko‘zi bilan ko‘rsatish uchun harakatlanuvchi fokalizatsiyadan foydalanish mumkin. Bu o‘quvchiga turli nuqtai nazarlarni ko‘rishga va turli belgilarni qanday qabul qilishini tushunishga yordam beradi.

Fokalizatsiyani o‘zgartirish ham hikoya ajablanish va keskinlikni yaratish uchun ishlatalishi mumkin. Muallif turli nuqtai nazarlar o‘rtasida almashish va asta-sekin hikoya tafsilotlarini ochib berish orqali o‘quvchidan ma‘lumotni qasddan yashirishi mumkin.

Umuman olganda, romandagi harakatlanuvchi fokalizatsiya muallifga chuqurroq va ko‘p qirrali hikoya yaratish imkonini beradi, bu esa o‘quvchiga voqealar va personajlarni turli nuqtai nazaridan ko‘rish imkonini beradi. Bu o‘qishni qiziqarli va hayajonli qiladi, shuningdek, muallifga o‘z g‘oyalari va his-tuyg‘ularini yanada samaraliroq etkazishga yordam beradi.

Narratologiya sohasidagi yangi filologik bilimlar tahlil jarayonida biz qo‘llaydigan terminalogiyani belgilab berdi. Birinchi navbatda, bu fokalizatsiya V. Shmidt “nuqtai nazar” “narratalogiyaning markaziy kategoriysi” deb ataydi. J. Jennetning (1972-yilda “fokalizatsiya” istilohining muallifi) ishlariga tayangan holda quyidagi tasnifni kiritgan V. Shmidt tadqiqotiga murojaat qilamiz:

1. “Nolli fokalizatsiya”: hikoya qilish hamma narsadan xabardor narrator nuqtai nazaridan olib boriladi;
2. “Botiniy (ichki) fokalizatsiya”: hikoya qilish personaj nuqtai nazaridan olib boriladi.
3. “Zohiriy (tashqi) fokalizatsiya”: hikoya personaj ongiga kira olmaydigan (yoxud unga kirib borishga o‘quvchig yo‘l qo‘ymaydigan) obyektiv narrator nuqtai nazaridan olib boriladi.

Bunday harakatlanuvchi fokalizatsiyalarga ko‘plab adiblarning novellalaridan misollar keltirishimiz mumkim. Shunday ekan ingliz adibi S. Fitzgeraldning “The Rich boy” novellasidagi misollardan keltirib o‘tamiz.

Tasavvur qilinadiki, S. Fitzgerald jaz improvizatsiyasining barcha usullaridan foydalanarkan, keng qamrovli hikoya qilishiga erishish uchun ikki uslubni birlashtiradi. Interyer, portret, muhitni tasvirlashda “nolli fokalizatsiya” ifodalangan: “Upon the trellised veranda of the Breakers two hundred women stepped right, stepped left...” (Brekersning panjaralari ayvonida ikki yuzta ayol o‘ngga, chapga qadam tashlashardi...)

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

Yozuvchi uchun mehr va so‘nggi urinishni his etish mujassam bo‘lgan Paullaning ayanchli ruhiy holatini alohida ta’kidlash muhimdir. Shu sababli, hikoyada uning ovozi jaranglaydi va tayanch ko‘rsatkichi bo‘lgan xulq-atvorning eng nozik xususiyatlariga urg‘u beriladi: “Darling, darling... Then Paula drew back her face to let his lips say what she wanted to heart... (Azizim, azizim ... So‘ngra Paula yuragidagi istakni lablari aytishi uchun yuzini burdi ...)

Ask me –oh, Anson, dearest, ask me”. (Menden so‘rang - oh, Enson, azizim, menden so‘rang.)

Ensonning ruhiy holatiga kelsak, S. Fitzgerald qahramonlarni ajratgandek yana fokolizatsiyaning ikkala usulidan foydalanadi. Avvaliga Paulaning psixologik holati va uning “mag‘lubiyati”, so‘ng esa – Ensonni yoritiladi. Ushbu epizodda “ong oqimi” uslubining unsuridan foydalanilgan bo‘lib, bunda qahramonning botiniy kurashi holati yaratiladi: “...he hesitated, thinking first. “This is moment, after all” and then. No, let it wait – she is mine”. (“...u avval o‘ylanib, ikkilanib qoldi. “Axir bu hammasidan keyingi lahza”, keyin. Yo‘q, kuting - qiz meniki.) Mazkur epizodning tugallanishi Paulaning bo‘lg‘usi to‘y haqidagi telegrammasiga Ensonning munosabatini izohlovchi har narsadan xabardor narratoring nuqtai nazaridan beriladi. Agar narrator hodisalarini va ularga tashqi munosabatini qayd etsa – bu hikoya qilishning bir sathi. Biroq, narrator qahramonlar qalb qo‘riga kirib borsa, boshqa sath bo‘ladi: “next morning filled with a certain restless dissatisfaction”. (Keyingi kungi tong qandaydir tashvishli norozilik ila to‘lgandi.) Boz ustiga, narrator o‘zini surbet hisoblovchi Ensonning Paula uni tashlab ketganidan keyingi fikrlarini bevosita keltiradi. S. Fitzgerald Ensonning Dolli bilan ishqiy munosabatliga bag‘ishlangan V-bobda ham narratoring shaxsiy modalligini kuchaytirarkan xuddi shunday usuldan foydalanadi. Paula narratorga yoqqan bo‘lsa, Dolliga nisbattan hislari ikkiyoqlama edi: bir tomondan – “yoqimtoygina jonon”, boshqa tomondan esa – Ensonning qalbini egallahsga muvaffaqiyatsiz urinayotgan qurban. Hikoyaning asosliligi va ishonarliligi narratoring quyidagi fikrlarida ifodalangan: “I had heard about his affair with Dolly as it developed....I had seen Dolly here and there...” (Men uning Dolli bilan bo‘lgan ishqiy munosabatlari haqida eshitgandim, chunki u tarqalib ketgandi ... Men Dollini bu yerda va u yerda ko‘rgandim ...) O‘z ishi bilan mashg‘ul, o‘z jamoliga ishongan, Pauladan keyin ishqiy munosabatlarga yengil munosabatda bo‘lgan kishi sifatida Enson obrazini yaratgan, narrator qahramonning Dolli bilan sevgisi tanazzulga yuz tutgani va o‘z karomatiga urg‘u beradi: “...but I was glad when I hear that the sacrifice would not be consummated in my sight”. (...lekin men ko‘z o‘ngimda qurbanlik tugamasligini eshitib, xursand bo‘ldim.)

S. Fitzgerald o‘z asarini shunday ko‘radiki, dastlabki boblar bayoni “psixologizm” ga kirib borish bilan kuchaytiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева К. А. Литературный нарратив: когнитивные аспекты текстовой семантики, грамматики, поэтики. –Тюмень: вектор Бук, – 2004. 244
2. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. М.1976. – 402 с.
3. Матвеева Г. Г. Скрытые грамматические значения и идентификация социального лица («портрета») говорящего: дис. д-ра филол. наук. СПб., 1993.
4. Palmer A. Frontiers of Narrative Series. 2004. – 276 р.
5. Шмидт В. Нарратологи . – М.: Славянские языки, 2003. – С. 113.
6. F Scott Fitzgerald The rich boy// F Scott Fitzgerald Selected short stories. – Moscow Progress Publishers, 1979. – Р. 107.
7. Абсаламов, X. (2022). Practicality of productive speaking skills in ESP and EGP. *Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков*, 1(01), 205-208.
8. Yusupova, S. A. (2021, April). Modern distance education in Uzbekistan and its development prospects. In *Archive of Conferences* (Vol. 23, No. 1, pp. 252-253).